# INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL TARBIYANING XORIJIY TENDENSIYALARI

**Quronov M. K.**
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bosh ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor;
**Jumanov Sh.**
Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashuv sharoitida individual va differensial tarbiyaning xorijiy tendensiyalari, rivojlangan davlatlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Unda G'arb va Sharq tarbiya konsepsiyalarining o'ziga xos jihatlari, ularning yoshlar xulq-atvori va ijtimoiylashuviga ta'siri qiyosiy jihatdan yoritilgan. Ayniqsa, Yaponiya milliy tarbiya tizimi, unda shakllantiriladigan 22 ta tayanch fazilat hamda tarbiya jarayonining individual va differensial yondashuv asosida tashkil etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Yaponiya tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish va yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan konvergent pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish masalalari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, individual tarbiya, differensial tarbiya, komparativ pedagogika, milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, Yaponiya tajribasi, yoshlar tarbiyasi, pedagogik texnologiyalar, konvergent yondashuv.

**Аннотация.** В статье анализируются зарубежные тенденции индивидуального и дифференцированного воспитания в условиях глобализации, а также передовой опыт развитых стран в сфере духовно-нравственного воспитания молодежи. Сравнительно рассматриваются особенности западной и восточной концепций воспитания, их влияние на поведение, социализацию и формирование личности молодежи. Особое внимание уделяется японской системе национального воспитания, формированию 22 базовых качеств личности и организации воспитательного процесса на основе индивидуального и дифференцированного подходов. Обосновывается необходимость адаптации положительного зарубежного опыта к условиям Узбекистана, использования современных цифровых средств воспитательного воздействия и разработки конвергентных педагогических технологий, направленных на формирование социально активной личности и

противодействие современным идеологическим угрозам.

**Ключевые слова:** глобализация, индивидуальное воспитание, дифференцированное воспитание, сравнительная педагогика, национальное воспитание, духовно-нравственное воспитание, японский опыт, воспитание молодежи, педагогические технологии, конвергентный подход.

**Abstract.** This article analyzes foreign trends in individual and differentiated education in the context of globalization, as well as advanced international practices in the spiritual and moral education of young people. It comparatively examines the specific features of Western and Eastern educational concepts and their influence on youth behavior, socialization, and personality development. Particular attention is paid to the Japanese national education system, including the development of 22 core personal qualities and the organization of educational processes based on individual and differentiated approaches. The article substantiates the need to adapt positive international practices to the conditions of Uzbekistan, utilize modern digital educational tools, and develop convergent pedagogical technologies aimed at fostering socially active individuals and countering contemporary ideological threats.

**Keywords:** globalization, individual education, differentiated education, comparative pedagogy, national education, spiritual and moral education, Japanese experience, youth education, pedagogical technologies, convergent approach.

Bugungi kunda globallashuv ta'sirida milliy o'zaklardan uzilib, uzoqlashuv va o'zga madaniyatlar qadriyatlariga ko'r-ko'rona taqlid qilish, buning oqibatida biror madaniyatga mansub bo'lmagan yoshlar toifasiga xos marginallashuv holatlari kuzatilmoqda. Bu ko'pincha sharq mamlakatlari yoshlarida kuzatilmoqda. Shu sababli ushbu marginallashuv hodisasining O'zbekiston yoshlariga ta'sirining oldini olish, ushbu stixiyali jarayonni pedagogik boshqariladigan, individual va differensial jarayonga aylantirish uchun masalaga komparativ pedagogik yondoshish zarurati yuzaga keldi.

G'arb va Sharq mamlakatlari tarbiya konsepsiyalarining natijasi o'laroq, xulq-atqorning ikki shaklli yaqqol ajralib turadi. G'arbiy xulq-atvor individualistik tip sifatida o'zligini namoyon qilish uchun hatto mikro va makro sotsiumlarni inkor qilish orqali o'zligini namoyon qiladi. Sharqona tarbiya natijasida shakllantiriladigan xulq-atvor modellari esa tadrijiy tarzda kechib, bunda oila, jamiyatda urf bo'lgan qadriyatlarning keskin inqirozi xavfi yo'q. Masalan, ajdodlarga hurmat ijtimoiy mo'tadillikning o'ziga xos kafolati bo'lib xizmat qiladi. Sharqo-

na tarbiyaning milliyligi va ijtimoiylikning silliq kechishi tufayli o'smirlik – o'tish davri yengil kechadi.

G'arb o'smirlarida esa bu jarayon ijtimoiy muhit, xalq, millatni inkor qilish, jamiyatda qabul qilingan axloqiy, ma'naviy me'yorlarga individualistik, nigilistik qarshi orqali o'tadi. Sharqlik kishi uchun el, urug', mahalla manfaatlari, fikrlari kuchli ta'sirga ega. G'arb kishisi uchun tevarak-atrofdagilarning fikrlaridan ko'ra o'zining "Men"ini namoyon qilish birinchi darajada turadi. Ushbu mumtoz qarashlar XX1 asr, globallashuv asrida o'zgarishlarga uchrab, mamlakatlardagi o'ziga xosliklarga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda yoshlar tarbiyasi tendensiyalariga konvergent yondoshish, turli mamlakatlarda globallashuv ta'siridan kelib chiqib yaratilgan texnologiyalarni o'rganib, O'zbekiston manfaatlaridan kelib chiqib, modifikatsiya qilish talab qilinadi.

Yaponiya dunyoning eng rivojlangan davlatlari Katta Yettiigidan mustahkam o'rin olgan, dunyoda o'rtacha IQ darajasi bo'yicha I o'rinda turuvchi, milliy o'zligini saqlab, farovonlikning eng yuksak natijalariga erishgan sharq mamlakati. Tashrif davomida delegatsiya Tokioning Suginami tumani Momoi 2-son maktabida axloqiy tarbiya jarayonini o'rgandi. Sukubo universiteti professori Tanakaning "Yapon axloqiy tarbiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi tinglandi. "Keyay Gakuen" maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiya metodikasi o'rganildi. Farg'ona viloyati hokimining ta'lim bo'yicha maslahatchisi, yapon pedagogi, Goto Mikako bilan ekspert sifatida suhbatlashildi (keyinchalik, 2024-yil 12-dekabr kuni Goto Mikako T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutiga tashrif buyurib, olimlar va doktorantlar bilan yapon tarbiyaviy tajribasi haqida ilmiy seminarda chiqish qildi). Moralogy Foundation fondi prezidenti Mototaka Xiroike bilan uchrashuv o'tkazildi hamda Reitaku universiteti professorlarining "Yaponiyada axloqiy tarbiya" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi. Shuningdek, Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi vakillari, Ta'lim tadqiqotlari milliy instituti rahbariyati hamda Maktabgacha ta'lim tadqiqotlari markazi tajribalari o'rganildi va bir qancha kelishuvlarga erishildi. Delegatsiya yapon olimlari bilan suhbatlashib, kuchli Yettilik a'zosi Yaponiyani rivojlantirgan asoslardan biri "Yapon ma'naviyati + G'arb bilimi = Yapon mo'jizasi" formulasi ekanini aniqladi.

O'tkazilgan ekspeditsiya natijasida yuqoridagi ijobiy tajribadan kelib chiqib, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ''O'zbek ma'naviyati + G'arb bilimi = O'zbek mo'jizasi" formulasi asosida tashkil qilish taklif qilindi. Bu Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ko'tarilgan g'oyani ma'naviyatni boshqa sohalardan o'n qadam oldinga olib chiqishga xizmat qilishi asoslandi.

*Yapon tarbiya tizimi asrlar davomida, hozirgigloballashuv sharoitida ham o‘z samaradorliginiyo'qotmay kelayotgani bilan pedagog olimlarning e'tiboridan tushmay kelmoqda. Zero, yapon shaxsni shakllantirish tizimi ikuzi asrlar davomida turli komponentlar bilan boyib, har biryaponiyalikni jamiyatda munosibyashashga o'rgatib kelmoqda. Davlat ham bu borada oilani qo'llab-quvvatlab, davlat va jamiyatning munosib fuqarolarini tarbiyalashga erishmoqda. Shu ma'nodayapon tarbiya tizimi bugun ham ma'nan, ham jismonan sog'lom, davlatning tayanchi bo'lagan shaxslarni tarbiyalashga kompleksyondoshishning namunasini ko'rsatib kelmoqda. Chunki bu tizimda har bir detal ikir-chikirigacha oylangan.*

Yapon pedagogi Sato Megumi bu haqda “ota-onalarga o'z farzandini geniy qilib yetishtirish vazifasini emas, balki bolaga o'ylashni o'rgatuvchi, voqealarni tahlil qila oluvchi, sog'lom tanli, aqlli va mehribon bo'lishni o'rgatuvchi axloqiy ta'limni taklif qilishi kerak”, deydi.

Yaponiya o'z taraqqiyotining boshida rivojlangan davlatlarning pedagogik yutuqlarini o'zlashtirib, o'ziga moslab, jadal joriy etib, rivojlanib keldi. Kuchli iqtisodni yaratish kuchli ma'naviyatni yaratish yapon hukumati tomonidan 1958 yilda tasdiqlangan ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha yo'riqnomaga asosan olib borilgan. Ya'ni, aholiga ijtimoiy pedagogika orqali), yoshlarga[maktab pedagogikasi orqali) 22 ta tayanch fazilatni o'rgatish bilan birga olib borilishi natijasida qisqa muddatda taraqqiyotning “Yapon ma'naviyati + G'arb bilimi = Yapon mo'jizasi” yaratilgan. Yaponiyaning axloqiy tarbiya bo'yicha tajribasini o'rganish natijasi asosida ekspeditsiya tomonidan quyidagi xulosalar qilingan:

Yaponiya hukumati tomonidan maktab bitiruvchilarida 22 ta fazilatni individual va differensial yondoshuv asosida tarbiyalash maqsadi qo'yilgan. Bu fazilatlar nafaqat axloqni o'rgatgan, balki o'quvchilarni bilim olishga safarbar qilgan. Bu esa, ta'lim, davomatning yuksak sifatini ta'minlagan. Kattalarga bu fazilatlar korxonalarda singdirilgan. Natijada bu fazilatlarga ega fuqarolar “Yapon mo'jizasi”ni yaratgan.

2024-yilda ham Yapon farzandlari tarbiyasida singdiriladigan fazilatlar, ularning jamiyatidagi madaniy qadriyatlar va urf-odatlardan kelib chiqib, bolalarga kichik yoshdan boshlab o'rgatiladi. Pedagogik tahlil qilinsa, 22 fazilat klasteri 5 moduldan iborat bo'lib, ularning 4 tasi besh fazilatdan iboratligi ma'lum bo'ladi. Faqat “Tabiat va madaniyatga hurmat” moduli 2 fazilatdan tarkib topgan.

Komparativ tadqiqotlar asosida Yapon milliy tarbiya fazilatlari turkumiga kiritilgan, maktablarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy jarayonlarida maxsus hvojlantihlayotgan 22 ta asosiy, tayanch fazilatlar 5 ta blokdan iborat ekanligi aniqlandi. Biz ularni Yapon milliy tarbiya klasteri,

deb nomladik (5 jadval).

Yaponiya maktablarida “yapon xulq-atvori” darsi maxsus, majburiy o'tiladi. Bu darsda muomala, odob-axloqning eng nozik qirralarigacha maxsus o'rgatiladi, mashq qildiriladi. Masalan, mehmon kelganda mezbon eshikni qanday ochishi kerakligigacha va h.k. Xullas, milliy tarbiyaviy ta'lim milliy fazilatlarni o'quvchilarning dastlab birinchi, keyin esa ikkinchi signallar sistemasiga aylantirishga, pirovard natijada esa, o'quvchilarning shaxsiy illatlariga, odatlariga aylanishida pedagogik texnologiya vazifasini o'taydi. Shu bois Yaponiya milliy tarbiyasi bir umrlik vaksina hisoblanadi. Ushbu tarix sinovidan o'tgan tajribani O'zbekiston yoshlari tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy sohasiga modifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi yapon yoshlari va aholisini tarbiyalashda animatsion va multiplikatsion vositalar juda keng qo'llanilib, yapon yoshlaridagi asosiy tayanch fazilatlarni namunaviy xulq modellari shaklida tasvirlab, tarbiyalamoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning ma'naviy tahdidlariga qarshi kurashish uchun raqamli targ'ibotning “anime”, “komiks”, “manga” va boshqa shu kabi turlari asosida multimediyali modellarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab qilinadi.

Dunyo tajribasidan hamda bugungi kundagi mafkuraviy kurashlar, O'zbekiston yoshlariga qaratilgan radikalizm, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat”, kosmopolitizm, marginalizm (vatansizlik g'oyasi) va boshqa mafkuraviy xurujlardan kelib chiqib, yoshlarni g'oyaviy, axloqiy tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning konvergent texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi pedagogik “aql markazlari”ni tashkil qilish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi masalasini ko'rib chiqish.

Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya, Singapur, Finlyandiya, Germaniya, AQSh va Saudiya Arabistonida o'rganishlarni davom ettirish rivojlangan mamlakatlar milliy tarbiyasi va madaniyatidan nusxa olish emas, balki kuchli rivojlangan davlatlar o‘z taraqqiyotida milliy tarbiya va ma'naviyatdan foydalanishda qanday texnologiya, metodikalarni qo'llaganini o'rganish va O'zbekiston muhitiga modifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Natijada rivojlangan davlatning axloqiy tarbiya va ma'rifiy targ'ibotga doir tajribalari o'rganilib, ularning natijalari asosida "Ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Angliyada o'zgarish, rivojlanish jarayonlari o'z zamonasining yangi aslzodasi jentlmenni tarbiyalash talabini kun tartibiga qo'ydi. Yangi jentlmen amaliy tajribaga ega, ishbilarmon, o'z mulkini avaylab-asrovchi va eng muhimi o'zining yangi sifatlarini o'tmish an'analari

bilan uyg'unlashtira olmog'i kerak edi. Yangi jentlmenlarni tarbiyalash g'oyasining asoschisi J.Lokk yosh jentelmenlar hisob-kitob ilmini bilish bilan birga, an'anaviy qilichbozlik san'atini ham yaxshi egallashlari kerak deb, hisoblar edi. Jon Lokk Angliyaning jahon miqyosidagi obro'sini ko'tarishni yoshlar jentlmenlarni tarbiyalashga tayanmay oshirish mumkin emasligini asoslab, amalga oshirdi.

Yuqoridagi pedagogik konvergensiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning diversifikatsiyasini yaratadi. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot ishlarining metodologik bazasini eng zamonaviy va ta'sirchan metodlar bilan boyitadi. Ana shunda kuchli ma'naviyat eng ta'sirchan, kuchli qurolga aylanib, boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yuradi. Barcha sohalardagi dastur va rejalar shiddat bilan amalga oshiriladi. Chunki buning “Inson omili” yaratiladi.

Angliyadagi tarbiyaviy maqsad – jentlmenni tarbiyalash g'oyasi Fransiyada ham qabul qilinib, o'ziga xos tarzda amalga oshirildi. Bu quyidagicha ta'riflangan edi; “Fransiyada tarbiyadan maqsad – o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o‘z Vatanida qabul qilingan xush xulqlik bilan uygunlashtirib, takomiligayetkazgan fransuzdir", Olmoniyada madaniy uyg'onish davrida amalga oshirilgan islohotlar maktab, tarbiya maqsadini belgilashga mahsuldor ta'sir ko'rsatib, Olmoniyaning milliy davlatsifatida rivojlanishiga katta turtki bo'lib xizmat qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» [nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
2. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. -T.: Fan, 1993. – 28 b.
3. Jo'raeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta'sirining psixologik jihatlari.: Avtorefarat. Dis...ped.fan.nom. – T., 2010 y.
4. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. – Toshkent.: Sharq, 2000 y. – 64-65 b.